



## DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning 1-iyul holatiga Toshkent shahri doimiy aholisi soni 2 999,5 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 43,1 ming kishiga yoki 101,5 % ga o'sdi.


**Toshkent shahri tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot  
(2023- yilning 1-iyul holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Toshkent shahri</b>	<b>2 999,5</b>	<b>2 999,5</b>	-	<b>101,5</b>	<b>101,5</b>	-
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	296,6	296,6	-	101,0	101,0	-
Bektemir	58,2	58,2	-	104,3	104,3	-
Yunusobod	371,8	371,8	-	101,3	101,3	-
Mirzo Ulug'bek	327,0	327,0	-	101,2	101,2	-
Mirobod	151,0	151,0	-	101,0	101,0	-
Shayxontohur	363,0	363,0	-	100,7	100,7	-
Olmazor	399,9	399,9	-	101,2	101,2	-
Sergeli	164,9	164,9	-	101,6	101,6	-
Yakkasaroy	131,5	131,5	-	103,6	103,6	-
Yashnobod	294,8	294,8	-	101,8	101,8	-
Yangihayot	167,1	167,1		103,7	103,7	-
Chilonzor	273,7	273,7	-	100,6	100,6	-



Toshkent shahri tumanlari kesimida 2023-yil 1-iyul holatiga eng ko‘p aholi soni Olmazor tumanida 399,9 ming kishini (Toshkent shahri aholi sonidagi ulushi (13,3%), kishini Yunusobod tumanida 371,8 ming kishini (12,3 %) va Shayxontohur tumanida 363,0 ming kishini (12,1 %) ni tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
*(2023-yil 1-iyul holatiga Toshkent shahri jami aholisiga nisbatan, foizda)*




**Toshkent shahrida aholining tabiiy harakati  
ko‘rsatkichlari va koeffitsiyentlari**  
*(yanvar-iyun)*

Ko‘rsatkichlar	Kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Tug‘ilganlar</b>	<b>34 230</b>	<b>38 790</b>	<b>23,9</b>	<b>26,3</b>
<b>O‘lganlar</b>	<b>7 960</b>	<b>6 734</b>	<b>5,6</b>	<b>4,6</b>
<b>shu jumladan: 1 yoshgacha o‘lgan bolalar</b>	-	-	-	-
<b>Nikoh (birlik)</b>	<b>9 278</b>	<b>8 804</b>	<b>6,5</b>	<b>6,0</b>
<b>Ajrim (birlik)</b>	<b>2 976</b>	<b>2 989</b>	<b>2,1</b>	<b>2,0</b>

**Tug‘ilish.** 2023-yil yanvar-iyun oylarida 38 790 ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga (34 230 ta bola) nisbatan 4 560 ta bolaga ko‘paydi, tug‘ilish koyeffitsiyenti 26,3 promilleni tashkil etdi.



**Aholining tug‘ilish koeffitsiyenti**  
*( yanvar-iyun oylarida, 1000 aholiga, promille)*



Tug‘ilish koeffitsiyentining sezilarli darajada o‘sishi Yakkasaroy (23,5 promilledan 71,8 promillega), Bektemir (28,8 promilledan 66,7 promillega), Yangihayot (23,4 promilledan 34,1 promillega), Yunusobod (23,5 promilledan 27,8 promillega) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha tug‘ilish koeffitsiyentining kamayishi Sirg’ali (30,8 promilledan 12,9 promillega), Yashnobod (21,2 promilledan 15,8 promillega) tumanlarda kuzatildi.

**O’lim.** 2023-yil yanvar-iyun oylarida o’lganlar soni 6,7 ming kishini tashkil etib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ( 1,2 ming kishi) ga kamaydi, mos ravishda o’lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi (2022-yil yanvar-iyun 5,6 promille bo’lgan).


O’lim koeffitsiyenti yuqori darajasi 2022-yilga nisbatan Chilonzor (5,9 promilledan 8,6 promillega) tumanida kuzatildi.

O’lim koeffitsiyentining past darajasi Yakkasaroy (2,4 promille), Yangihayot ( 2,6 promille) va Shayxontohur (3,5 promille) tumanlarida qayd etildi.

Ro‘yxatga olingan jami o’lganlarning 57,2 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 15,0 % o‘sintalardan, 5,2 % ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, 6,4 % nafas olish a’zolari kasalliklaridan, 4,3 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,2 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 8,7 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.




**2023- yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi  
bo‘yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foizda)**



**Nikoh va ajrimlar.** 2023-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,8 mingta nikoh va 3,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,0 promilleni (2022-yil yanvar-iyun oylarida 6,5 promille bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 2,0 promilleni (2022- yil yanvar-iyun oylarida 2,1 promille bo‘lgan) tashkil etdi.

**Nikoh tuzish va nikohdan ajralishlar koeffitsiyentlari**

(2023-yil yanvar-iyun, 1000 aholiga, promille)





## DEMOGRAFIK HOLAT



### Nikoh va ajrimlar soni


(yanvar-iyun)

(birlikda)

	Nikohlar		Ajrimlar	
	2022- yil	2023 -yil	2022 -yil	2023- yil
<b>Toshkent shahar</b>	<b>9278</b>	<b>8804</b>	<b>2976</b>	<b>2989</b>
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	1011	895	289	299
Bektemir	201	194	69	72
Yunusobod	1289	1294	392	405
Mirzo Ulug‘bek	821	868	320	346
Mirobod	406	416	130	162
Shayxontohur	1026	944	319	284
Olmazor	1163	997	372	336
Sergeli	537	646	257	235
Yakkasaroy	627	523	147	118
Yashnobod	856	749	313	339
Yangihayot	404	362	71	97
Chilonzor	937	916	297	296




**Tumanlar kesimida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida  
nikohlar soni bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**



**Nikoh.** Dastlabki ma'lumotlarga ko‘ra, tumanlar bo‘yicha eng yuqori nikoh tuzish darajasi Yunusobod tumanida 1294 ta, Olmazor tumanida 997 ta, Shayxontohur tumanida 944 ta, Uchtepa tumaniga 895 ta to‘g‘ri keladi.

Tumanlar bo‘yicha eng kam nikoh tuzish darajasi Mirobod 416 ta, Yangihayot 362 ta, Bektemir 194 ta va tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Tumanlar kesimida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida nikohdan  
ajralishlar soni bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**





**Ajrim.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikohdan ajralishlar darajasi Yunusobod 405 ta, Mirzo Ulug'bek 346 ta, Olmazor 336 ta, va Yashnobod 339 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikohdan ajralishlar darajasi Bektimir 72 ta, Yangihayot 97 ta va Yakkasaroy 118 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

**Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi  
2023- yil yanvar-iyun oylarida**



2023- yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida jami nikohdan ajrashganlarning 51,2 foizi farzandsiz, 25,2 foizi bitta farzand bilan va 23,6 foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 46,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 35,1 ming kishini tashkil etdi.

Shunga muvofiq, migratsiya saldosi plyus 11,1 ming kishini tashkil etib, 2022-yilning mos davrida 20,8 ming kishini tashkil etgan.

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (plyus 3,8) tumanida qayd etildi.




**Aholi migratsiyasi**  
(yanvar-iyun)

(kishi)

	Kelish		Ketish		Migratsiya saldosи	
	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023- y.	2022-y.	2023- y.
<b>Toshkent shahri</b>	<b>51426</b>	<b>46222</b>	<b>30653</b>	<b>35130</b>	<b>20773</b>	<b>11092</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	3929	3495	3569	3619	360	-124
Bektemir	2676	1412	527	753	2149	659
Yunusobod	4047	3975	3285	3471	762	504
Mirzo Ulug‘bek	6182	4737	2897	3600	3285	1137
Mirobod	2686	2577	1942	2287	744	290
Shayxontohur	2809	2598	3325	3250	-516	-652
Olmazor	3519	3455	3084	3125	435	330
Sergeli	8233	4885	2417	2975	5816	1910
Yakkasaroy	1941	2061	1623	1949	318	112
Yashnobod	5454	7213	2762	3371	2692	3842
Yangihayot	5704	6051	1488	2606	4216	3445
Chilonzor	4246	3763	3734	4124	512	-361

**Aholining tabiiy va mexanik harakatlari to‘g‘risida ma’lumot**  
(2023- yil yanvar-iyun, 1000 aholiga, promille)





## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlар fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.